



O'ZBEKISTON BANK TIZIMI VA UNING RIVOJLANISHI

Inoyatov Sarvar Xidoyatillo o'g'li

O'zsanoatqurilishbank ATB Risk menejment departamenti integratsiyalashgan risk xizmati Katta menejeri

Annotatsiya: *O'zbekistonda bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar banklar faoliyatini liberallashtirish, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan. Ushbu ilmiy maqola yurtimiz bank tizimi hamda turlari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Bank, moliya, miliyu bank, tijorat bank, iqtisodiyot, rivojlanish, qonun.*

БАНКОВСКАЯ СИСТЕМА УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ РАЗВИТИЕ

Аннотация: *Банковская система Узбекистана играет важную роль в развитии экономики страны. Реформы, проводимые в последние годы, направлены на либерализацию деятельности банков, повышение качества финансовых услуг и улучшение инвестиционного климата. В данной научной статье представлены идеи и наблюдения о банковской системе и её типах в нашей стране.*

Ключевые слова: *Банк, финансы, национальный банк, коммерческий банк, экономика, развитие, право.*

THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN AND ITS DEVELOPMENT

Annotation: *The banking system in Uzbekistan plays an important role in the development of the country's economy. The reforms implemented in recent years are aimed at liberalizing the activities of banks, improving the quality of financial services and improving the investment climate. This scientific article presents ideas and observations about the banking system and its types in our country.*

Keywords: *Bank, finance, national bank, commercial bank, economy, development, law.*

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bank tizimi iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, barqaror moliyaviy muhitni yaratish va xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab O'zbekistonning bank tizimi sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning turli farmonlari va qonunlari bank tizimi islohotlarini amalga oshirishda asosiy huquqiy baza bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda bank tizimi mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng shakllana boshladi. 1991 yilda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun asosida milliy bank tizimi mustahkamlandi.

Dastlab, davlat banklarining ustunligi kuzatilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklar ham faoliyat yurita boshladi. O'zbekiston bank tizimi asosan quyidagi asosiy bo'g'inlardan iborat:

1.1. Markaziy Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki mamlakatning asosiy moliyaviy muassasasi bo'lib, davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshiradi. "Markaziy bank to'g'risidagi qonun" ning 2019-yil 11- noyabrda qabul qilingan yangi tahririga ko'ra, Markaziy bankning vazifalari kengaytirildi, xususan, pul-kredit siyosatining mustaqilligi yanada kuchaytirildi. Markaziy bankning xalqaro moliya institutlari bilan aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Bu yangi tahrirga ko'ra, Markaziy bankning roli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda va inflyatsiyani nazorat qilishda yanada kuchaytirilgan.

1.2. Tijorat banklari Tijorat banklari O'zbekiston bank tizimining asosiy bo'g'inlaridan biridir. "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun" ning 2019-yil 5- noyabrda qabul qilingan yangi tahririda tijorat banklarining faoliyati tartibga solinadi, shu jumladan, ular tomonidan taklif etilayotgan raqamli bank xizmatlari va innovatsion texnologiyalarning samarali qo'llanilishi uchun huquqiy asoslar yaratilgan. Qonunning yangi tahririga ko'ra, tijorat banklarining faoliyatini yanada oshirish va ularni xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilish uchun bir qator yengilliklar berilgan. Banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirish va moliyaviy tizimni isloh qilish bo'yicha yangi normativ hujjatlar qabul qilingan.

1.3. Ixtisoslashgan banklar Ixtisoslashgan banklar o'z faoliyatini faqat ma'lum sohalari bilan bog'liq amalga oshiradi, masalan, qishloq xo'jaligi, sanoat yoki qurilish sohalari. Ixtisoslashgan banklarning faoliyati hamda ularning iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi Prezident farmoni asosida tizimli ravishda qo'llab-quvvatlanmoqda. 2024- yil 2-maydagi farmon (PF-6694) bu banklarning faoliyatini takomillashtirish va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

1.4. Xalqaro banklar va filiallar O'zbekiston bank tizimida xalqaro banklar faoliyat yuritadi. "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun" ning yangi tahririda xalqaro banklar bilan hamkorlikni kengaytirish, xalqaro moliya tizimlariga integratsiyani kuchaytirish maqsadida yangi me'yorlar kiritilgan. Buning natijasida, O'zbekistonning bank tizimi xalqaro miqyosda yanada rivojlanib, xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini oshirmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi sharoitida banklarda raqamli bank xizmatlari faoliyati keng rivojlanib borayapti.



Raqamli bankka to'xtalib o'tadigon bo'lsak raqamli bank – bu innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

Raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta'mirlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

Bank xizmatlarining raqamlashuvida qayd etilgan yutuqlarga qaramay, ayrim demografik guruhlar, ayniqsa katta yoshdagi mijozlar va raqamli savodxonligi past bo'lgan aholiqatlamlari uchun an'anaviy bank xizmatlarini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli banking zamonaviy bank tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Bu tendensiya bank xizmatlari sifatini oshirish va mijozlar tajribasini yaxshilash imkonini beradi. Biroq raqamli transformatsiya jarayonida xavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Kelajakda sun'iy intellekt, blockchain va boshqa innovatsion texnologiyalarning bank sohasiga tatbiq etilishi yanada kengayadi. Bu esa bank xizmatlarining yanada personallashtiruviga va samaradorligining oshishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Bank tizimi — bu pul mablag'larini saqlash va qayta ishlash bilan shug'ullanadigan, o'z mijozlariga kreditlar va boshqa xizmatlarni taqdim etadigan banklar va boshqa moliya institutlar to'plamidir. Bank tizimi iqtisodiy infratuzilmaning asosiy elementi bo'lib, moliyaviy operatsiyalarning uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Turli mamlakatlarda bank tizimi turli xil tuzilishga ega bo'lishi mumkin.

Ammo odatda bank tizimi bir necha darajalarga bo'linadi. Birinchi darajada mamlakatning bank tizimini tartibga soluvchi Markaziy banklar mavjud. Markaziy bank foiz stavkalarini belgilash, pul massasini tartibga solish, boshqa banklarni nazorat qilish kabi funktsiyalarni bajarishi mumkin. Keyingi bosqichda mijozlarga xizmat ko'rsatadigan va depozitlarni qabul qiladigan, kreditlar beradigan va hokazo tijorat banklari mavjud.

Yana bir daraja mintaqaviy banklar bo'lib, ular mahalliy jamoalar uchun moliyaviy xizmatlarni taqdim etish orqali bitta mintaqada yoki shtatda ishlashlari mumkin.

Ba'zi mamlakatlarda, shuningdek, bitta korxona xodimlari yoki bitta jamoa aholisini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan ittifoq a'zolari uchun moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan kredit uyushmalari bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi. (2019). Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun (yangi tahrir). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
2. Shamsiev, M. (2021). Banklar va moliyaviy xizmatlar: xalqaro tajriba va O'zbekiston misolida. O'zbekiston Milliy universiteti nashri.



3. Ahmadov, D. (2020). Tijorat banklari va ularning iqtisodiyotdagi o'rni. Tashkent: Akademnashr.

4. Karimov, B. (2022). O'zbekistonda raqamli bank tizimini rivojlantirish istiqbollari. – Toshkent: "Moliya" nashriyoti.

5. Mirzoev, O. (2021). O'zbekiston bank tizimining raqamli transformatsiyasi. "Innova" ilmiy jurnali, 9(3), 48-58.